

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI.

«UMUMIY TARIX» KAFEDRASI

Ochiq dars ishlanmasi.

MAVZU: KARTOGRAFIYA
(Yordamchi tarix fanlari asoslari)

Ma'ruzachi: dots. R. N. Tolibov.

Navoiy - 2008

Kartografiya

Reja:

1. Kartalarni o'rganish tarixi.
2. Yevropaning o'rta asrlar kartalari tarixi.
3. O'rta Osiyo hududlari kartografiyasi tarixi

Adabiyotlar

1. I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. Sharq. 1998
2. Alayner A. Z. Larionova A. K. Churkin V. G. Atlas geograficheskix otkro'to'y. M. 1959.
3. Samisev K. A. Kartovedeniye. M. 1982.
4. Pospelov YE. M. Toponimika i kartografiya. M. 1971.
5. Postikov A. B. Razvitii kartografii i voproso' ispolzovaniya staro'x kart. M. 1985.
6. Ramsey R. Otkro'tiya kotoro'x nekogda ne bo'lo. M. 1982.
7. Fradkin N. G. Geograficheskoye otkro'tiye i nauchnoye poznaniya Zemli. M. «Mo'sl». 1972.
8. Shumovskiy T. A. Arabo' i more: po stranisam rukopisey i knig. M. 1964.
9. Magidovich I. P. «Ocherki po istorii geograficheskix otkro'tiy. T 1-5, M. 1982.
10. Mirzaliyev T. Kartografiya. T. «Universitet». 1982.
11. Xasanov X. X. Geograficheskoye naslediya uchyono'x Sredney Azii. Tashkent. «Fan». 1964.
12. G'ulomov P. Jug'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. T. O'qituvchi. 1984.

Tarixiy voqealarni tahlil qilish uchun avvalo jamiyatda kechgan jarayonlarni, qolaversa, tarix va geografiya, tarix va kartografiya sohalarining qiyosiy o'rganilishi talab etiladi.

Respublika Prezidenti Islom Karimov respublikamiz tarixchi olimlari va jurnalistlar bilan o'tkazilgan suhbatida (1998 yil 26 iyun)¹ kommunistik mafkura hukmronligi yillarida butun ma'naviyatimiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz toptalganligi, tariximiz davlatchiligimiz tarixi atayin buzib ko'rsatganligi ta'kidlanib o'tildi. Darhaqiqat, tariximizni bugungi kun nuqtai nazarida o'rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash tarixchilarimiz oldida muhim vazifa bo'lib turibdi. Shu nuqtai nazarda qaraganda tarix fanlarini bugunda milliy istiqlol ruhida qayta o'rganish, uning o'qilmagan sahifalarini tiklash va o'quvchiga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Sir emas boshqa fanlar singari tarix fanlari tarkibida «Yordamchi tarix fanlari asoslari» fani ham faqat rus tarixini o'rganishga qaratilgan edi, xolos.

Hozirda bu fan asoslari mavzulari ham qayta tahlil etildi. Talaba yoshlarga tariximizni xolisona o'rgatishga qaratilgan ayrim muammolar o'z yechimini topmoqda, sahifalari to'ldirilmoqda. Quyidagi «kartografiya» mavzusini o'rganish ham shu maqsadga qaratilgan.

Kartografiya tarixi taraqqiyoti asrlar davomida shakllangan oddiy chizmalardan toki aniq ishlangan kartalar yaratilishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Olimlarning fikriga qaraganda: «bir kartaning mazmunini 100 sahifalik jiddiy ilmiy matnga tenglashtirish mumkin».

1-slayd. Karta - bu tarixiy manba bo'lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, vayron bo'lgan va yana tiklangan shaharlar, tabiiy ob'yektlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini, unitilgan qadimgi sug'orish inshootlari hamda xalqlar taqdirini hududlar bilan bog'lab o'rganadi. Shu jihatdan har bir tarixiy kartani tarixiy manba sifatida baholash mumkin.

Ibtidoiy jamoa davridanoq inson ilk kartalarni yarata boshlagan. Masalan: Geograf Frits Redniger «Shvisariyadagi tarixdan avvalgi kartografik rasmlar» nomli asarida shvesariyadagi g'orlardan topilgan ikkita suyak plastinkani o'rganish natijasida, plastinkalardagi tasvirlar o'sha joyga oid asosiy yo'llar tasvirlanganligini aniqlaganini yozadi. U ovchilik va baliqchilik keng tarqalgan hududlarda shakllangan. Chunki ibtidoiy davrda odamlarning o'zlari yashaydigan manzildagi yo'llar,

¹ I.A. Karimov . Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. «Sharq». 1998.

so'qmoqlar, daryolar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari ularning moddiy turmush – tarzlarining yaxshilanishiga, hamda tabiat oldidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishlariga yordam bergan.

Ilmiy adabiyotlarda qadimgi kartalar va kartografiyaning shakllangan davri haqida aniq javob yo'q. Ammo bizgacha yetib kelgan kartografik tasvirlar mil. avv. III- II ming yilliklarga oiddir. Ular orasida shimoliy Italiyaning Kamonika vodiysidan topilgan bronza davriga oid (mil.avv. II ming yillik o'rtalari) kartografik tasvirlarda dalalar, so'qmoqlar, irmoqlar va sug'orish kanallari aks ettirilgan¹.

Qadimgi karta – tasvirlar gil taxtachalar, papirus va pergamentlarga chizilgan bo'lib, qadimgi tarixiy ma'lumotlarni o'ziga aks ettirgan. Kartalar yaratish an'anasi ilk bor qadimgi boy madaniyatli xalqlar – ossuriyaliklar, bobilliklar, misrlik va finikiyaliklarda eramizdan bir necha ming yil avval shakllangan. Tarixdan ma'lumki, miloddan avvalgi 2300 yillardanoq qadimgi bobilliklar ilk kartalarni chizib qoldirganlar. Mazkur kartada yerning ba'zi qismlari o'z aksini topgan edi.

Endi karta, kartografiya va tarixiy kartografiya tushunchalariga izoh berib o'tmoqchimiz. Antik davrda kartalar uchun maxsus atama bo'lmagan. Qadimgi Rim imperiyasida kartografik tasvirlarni **tabula** (doska) deb atashgan. Karta so'zining qo'llanishi Uyg'onish davrida «charta» (varaqa qog'oz), yunon tilida «xartes» (papirusdan yasalgan qog'oz) ma'nosi bilan bog'liqdir. Bu atama ilk bor XIV asrda Portugaliyada chizilgan kartalarda uchraydi. Demak karta so'zi «xartes» so'zidan olingan bo'lib, yozuv uchun mo'ljallangan **papirus varag'i** degan ma'noni bildiradi.

2-slayd. Kartografiya atamasi esa, ancha kengroq tushuncha bo'lib, u «tabiat va jamiyatdagi voqea - hodisalarning o'zaro bog'liqligini, ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi kartografik tasvir, obrazli belgi – modellar vositasi bilan tasvirlashni va tadqiq qilishni o'rganuvchi fandır².

Kartografiya qadimgi fanlardan sanaladi. Bu fan haqidagi dastlabki ta'rifni (kartografiya atamasisiz) milodiy II asrda yashagan yunon olimi Klavdiy Ptolemey bergan³.

¹ Салишев. Карта и картография: как стары эти панятия и термини. Журналь ВГО. 1976. № 2. Стр - 92

² Mirzaliyev T. Kartografiya. T. «Universitet». 1982. 4-bet

³ Shu yerda: 4 – 5 - bet.

Eramizdan avvalgi II asrda astranom Gipparx kartani yer shari shaklida berib, 3600 bo'lgan karta yaratgan. Injil bo'yicha yaratilgan kartalar esa, yer aylana, disk shaklida va to'rtburchak tasavvurida berilgan. Albatta okean bilan chegaralangan. Osmon ikki qavat, yuqorida xudo va farishtalar tasviri tushurilgan. quyoshni xudo chiqaradi, keyin yashiradi tasavvurida berilgan. Yer markazida Iyerusalim (Quddus) bosh shahar joylashgan. Sharqda tog'lar va to'rt daryo Tigr, Yefrat, Geon, Fison tasviri tushurilgan. Hozirda 1100 ta monastirlik kartasi saqlanib qolgan. Shulardan 600 tasi XIII asrda yasalgan. Dengiz kartalari esa, svgavta deb atalgan. 1275 – 1339 – 1367 yilda yaratilgan dengiz kartalari bizgacha saqlanib qolgan. Ayniqsa 1367-yilda yaratilgan venesiyalik aka-ukalar Pasigano va Martin Bexayma kartlari shular jumlasidandir.

Arablarda karta aniq haqiqatga yaqin tarzda tasvirlangan. Masalan: XII asrda Al Idrisiy Sisiliya qiroli Rodjer II buyrug'i bilan 1154-yili bir aylana, bir to'g'ri burchakli 70 – betli dunyo xaritasini chizgan. Arablarda kartalar Hind Okeani bilan o'ralgan. Shunday kartalar hozirda Sankt - Peterburgda saqlanmoqda.

Yevropa xalqlarining o'rta asrlar davri kartalari esa O'rta Yer dengizi bilan o'ralgan holda tasvirlangan. Ular kartani portplan deb atashgan. Mazkur portplanlardan ikkitasi Sankt-Peterburgda saqlanmoqda.

Kartalar tarixini o'rganish XI asrdan boshlangan. Fransuz muhandisi – geograf Barbey Bokans o'zi izlab topgan kartalarga tarixiy ta'rif bergan. Ayniqsa, monastr kartalari, yani 1200-1500 yillarda yaratilgan kartalar haqida o'z asarini yozib qoldirgan. Buyuk Britaniyada hozirda katola nomi bilan ataluvchi 15 tomlik kartalar Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Golland izlanuvchisi K. Kuma hisobida 680 ta atlas kartalar tadqiqot qilingan. Hozirda 1570 – 1880 yilgacha davr kartalari Niderlandiya muzeyida saqlanmoqda. Shularni ichida A. Nordenjeld va K. Millerni «Rim – Yo'l» kartalari (IX-XII asrlar) eng dastlabki qadimiy kartalar sifatida Portugaliyada saqlanmoqda.

Yevropada Uyg'onish davri, Buyuk Geografik kashfiyotlar va mustamlakalar uchun boshlangan harakatlar kartografiya fani taraqqiyoti uchun yangi sahifa ochdi¹. Endilikda karta tuzib uni sotish yo'lga qo'yiladi. O'rta asrlarda tovar almashinishi, savdoning jonlanishi, shaharlarni vujudga kelishini tezlashtirgan. Ayni paytda savdo maskanlari va ularga olib borish yo'llari ehtiyojlari kartalarning

¹ Berlyant A. M. Karta rasskazo'vayet. M. Prosviheniye. 1978. S. 28.

ko'plab yaratilishiga zamin hozirlagan. O'rta asrlarda ayniqsa Ispaniya, Italiya, Portugaliyada kartalar tuzish va sotish jonlangan. Masalan: Vasko de Gama Hindiston safarida 1497 – 1499 yillarda italyan, portugaliyalik kartalar bilan sayohat qilgan. Xristofor Kolumbning o'zi tuzgan kartasi ham saqlanib qolgan.

XVI asrda Yevropada tarixiy geografiya fani shakllanadi. Ushbu fan doirasida xuddi shu asrning o'zida tarixiy Kartografiya fani ham paydo bo'ldi. Bu fanning asoschisi flamand (belgiya) olimi Abraxam Ortelliy bo'lib, u 1570 yilda uchta kartadan iborat dunyo atlasini yaratgan. 1603 yilda Orteliy tomonidan antik dunyoning 53 ta tarixiy kartalardan iborat «Dunyo teatri» atlasini e'lon qiladi. Tarixiy kartografiya tarixiy karta va atlaslar tuzish, ularni yaratish uslubiyatini ishlab chiqishdan iborat vazifalarga ega.

Tarixiy kartalarni haqqoniy yaratish, unga ko'proq yangi kashf etilgan yerlarni kiritish sari burilish yuz beradi. 1522 yilda ispaniyalik Nuno Garseya de Toren Magelan sayohatini yo'lini va Filipin orollarini kartaga kiritadi. Nemis olimi Martin Vldzeyemyuller gulobus va dunyo kartasi avtor sifatida Atlantika okeanini kartaga kiritadi. Ayni paytda Amerika qit'asini Ameriko Vespuchi nomi bilan bog'laydi. 1538 yil Gerard Markator Amerikani ikkiga bo'ladi: Shimoliy va Janubiy Amerikaga. 1595 yilda xaritalarning to'plami uchun «Atlas» nomi Markator tomonidan taklif etilgan.

1503 yilda ispan qiroli tomonidan yangi dengiz kartalarini tuzishga farmon beriladi. Lekin, harbiy dengiz kartasi bizgacha yetib kelmagan. Sababi harbiy xarita sir saqlangan yoki ma'lum sabablarga ko'ra yo'qotib yuborilgan. Shunga qaramasdan Lukas Yans Vagenerning «Dengiz oynasi» nomini olgan dengiz kartasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kartaning qo'lyozma nusxasi Ispaniyada saqlanib kelinmoqda.

XVI asrning 40 yillarida portugaliyaliklar kartasini fransuzlar yanada takomillashtiradi. Shu davr kartalarining aksariyat qismi geograf Nikola Dyufin tomonidan yaratilgan. Uning tomonidan yaratilgan kartalarning ko'pchilik qismi davlatlar kartasini tashkil etadi. Ma'lumki, bu davr o'zaro davlatlar o'rtasidagi urushlar jarayonida kechgan. Davlatlar o'rtasidagi urushlar u yoki bu davlatning sir - asroridan ogoh bo'lishni talab etar edi. Shu davrdan boshlab quruqlikdagi davlatlar kartasini tuzish rivojlanib borgan.

Agar yuqridagi kartalarning yaratilishiga nazar tashlasak, albatta texnik jihatdan kamchiliklari ko'p bo'lgan. Karta tuzishda kompas,

shunur, doira, o'lchov asboblari primitiv bo'lib, to'g'ri o'lchashga imkon bermagan. Faqatgina XVIII asrga kelib uglometr yaratiladi. Unga ko'ra kenglik va uzunlik o'lchangan.

XVIII asrning birinchi yarmiga kelib fan – texnikaning rivojlanishi, manufakturalarning paydo bo'lishi kartalar tuzish va sotish ishlarini ham tezlashtirgan. Bosma holatda u yoki bu davlatning kartalarini bosib chiqarish yo'lga qo'yiladi.

3-slayd. Bugunda tarixiy kartalar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. tarixiy – geografik
2. tarixiy – etnografik
3. tarixiy-siyosiy
4. tarixiy-iqtisodiy
5. tarixiy-harbiy
6. milliy-ozodlik harkatlari va inqilobiy kurashlar tarixi
7. madaniyat tarixi
8. tarixiy-demografik
9. tarixiy-arxeologik
10. geografik kashfiyotlar va tadqiqotlar tarixi kartalari
11. alohida shaxslar hayotini aks ettiruvchi tarixiy kartalari
12. tarixiy tibbiy kartalar
13. dinlar tarixi kartalari.

Ana shu bo'limlarning har biri fanning turli sohalariga xizmat qiluvchi manbalar sirasiga kiradi.

O'rta Osiyo xalqlarining tarixga nazar tashlasak, kartalar tuzish, globuslar yaratish, Yevropa mamlakatlaridan oldinroq boshlangan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Ulug' bobokalonimiz, qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** (973-1042) birinchi marta dunyo globusini yaratganligi to'g'risida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Uning globusi Shimoliy yarimsharning globusi edi. Lekin g'arb olimlari buni tan olmaydi. Birinchi globus yunonistonlik Krates (eramizdan avvalgi II asr) tomonidan yasagan. 1492 yilda Marten Bexaym birinchi mukammalroq globus yasagan. Lekin unda Amerika, Avstraliya va Antarktida tasvirlanmagan. Bugunda mahalliy aholidan chiqqan Xoji Yusuf Hay'atining 1886 yilda ishlagan globusi Samarqanddagi madaniyat va san'at tarixi muzeyida saqlanmoqda.

O'rta Osiyo g'arbda Kaspiy dengizi, janub va sharqdan Eron Islom Respublikasi, Afg'oniston va Xitoy Xalq Respublikasi, shimoldan

45032 shimoliy kenglik¹ bilan chegaralovchi ulkan hududda joylashgan bo'lib, jami 1 mln. 984 ming kv.km. ni tashkil etadi.

Bu o'lka qadimiy sivilizasiya markazlardan biridir va yirik imperiyalar tarkibida jahon siyosiy hamda iqtisodiy tarixida katta o'rin tutgan. Qadimgi G'arb va Sharq o'rtasidagi iqtisodiy va savdo aloqalarida muhim vositachilik vazifasini bajargan.

O'rta Osiyo haqida geografik, jumladan kartografik tasavvurlar tarixi ham ancha qadimgi, aniqrog'i antik davrdan boshlanadi. O'rta Osiyo to'g'risidagi dastlabki kartografik ma'lumotlar antik davrning sivilizasiya markazlari bo'lishi Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda yozilgan manbalarda uchraydi. Chunki «antik davr mamlakatlari Sharqning ko'plab mamlakatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganlar, shu tufayli o'z tarixiy geografik va kartografik tasavvurlarini kengaytirganlar va boyitganlar»².

Gerodot, Strabon, Klavdiy Ptolomey va boshqa antik davr mualliflarining asarlarida O'rta Osiyoning ilk tarixiy kartografiyasiga oid ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Gerodot (mil. avv. 484-425 yillar) o'zining «Tarix» asarida Kaspiy dengizdan sharqda bepoyon kengliklar mavjudligi haqida ma'lumot beradi. U Kaspiy (Girkan) dengizini yopiq havza deb, uning ko'lami haqida shunday fikr yuritadi: «Uzunligini eshkakli kemada 15 kunda, kengligini esa hammasi bo'lib, 8 kunda suzib o'tish mumkin». Araks (Amudaryo) haqida ma'lumot berib, Gerodot: «Araks, aytishlaricha, Isterga qaraganda kattaroq va (boshqa daryolarga ko'ra) kichikroq, Lesbos kattaligidagi ko'plab orollarga ega... Araks Matiyonlar yurtidan oqib keladi. Gindis (Hind) daryosi ham o'sha yerdan oqadi»□,- deb qayd etgan. R. E. Lensning fikriga ko'ra, Geradot yozgan Araks daryosi Sirdaryo yoki Tajan daryosi bo'lishi kerak. Ammo ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, u Amudaryodir. Geradot Amudaryoning bir o'zani (O'zboy) Kaspiyga quyilgan, deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Professor A. Sag'dullayev ham «Araks bu Amudaryo, Matiyon tog'lari, Geradotning tushunishicha, Pomir yoki Hindikush tizimlaridir, chunki tarixchining (Geratodning) aytishicha, Matiyon tog'laridan Hind daryosi ham boshlanadi»,-deb yozadi³.

¹ Shimoliy chegara E. M. Mirzayev fikriga ko'ra berildi. Srednyaya Aziya. M. 1947. str-4

² Galkov CH. V. va boshqalar. O'zbekiston kartalari. T. «O'qituvchi». 1975. 7-bet

³ Sa'dullayev A. S. Qadimgi O'zbekiston ikl yozma manbalarda, T. «O'qituvchi». 1996. 34-bet

Geradot massagetlarning yerlari haqida fikr yuritib, ular «Kaspiy dengizidan sharqda, quyosh chiqish yo'nalishida joylashgan» deb yozadi¹. Uning Baqtriya va Xorazm haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir» «Osiyoda bir vodiya bor. Uning hamma tomoni tog' bilan o'ralgan. Tog'ni esa beshta dara kesib o'tadi. Bir vaqtlar bu vodiya xorazmliklarga qarashli bo'lib, xorazmliklar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlarida joylashgan».

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, J. Tomson, V. Fedchinib, V. Dementyev. O. Andryushenkolar Gerodot ma'lumotiga tayanib, kartalar yaratganlar. J. Tomson Kaspiy dengizining kengligini uzaytirib yuborgan. Bu esa Geradot yozganlariga mos tushmaydi. V. Dementyev, O. Andryushenkolar Araks (Amudaryo)ni birmuncha to'g'riroq chizganlar, lekin uning Kaspiyga qo'yiluvchi irmog'i tasvirlanmagan. Shuningdek, baqtriyaliklar yurti ham aks etmagan. V. Fedchina tiklagan kartada Gerodot tilga olgan «botqoqlik va ko'plab» mavjud hududlar tasvirlangan bo'lsa-da, biroq baqtriyaliklar va massagetlar yerlari chizilgan.

Yana bir yunon olimi Gerodotning tarixiy an'alarini davom ettirgan **Ktesiy** (mil. avv. IV asr) O'rta Osiyoda bo'lmagan bo'lsa-da, lekin bu yerlar haqida bir qadar ma'lumotga ega bo'lgan. Uning qayd etishicha, qariyb barcha xalqlar satrapliklarga bo'lingan bo'lib, faqatgina sak qabilalarigina satrapliklarga kirmagan. Ktesiy davrida shaqdagi yirik va ahamiyatli satrapliklardan biri Baqtriya, So'g'diyona, Hind daryosi yo'nalishidagi hududlarni o'z ichiga olgan edi.

Baqtriya yerlaridagi kumush konlari haqida gapirib, Ktesiy bu zaminning chuqur yer qatlamlarida ushbu metallning ko'pligini yozadi.

Ktesiyga ko'ra, sharqda yirik Shimoliy dengiz (Kaspiy dengizi) bo'lib, dengiz bo'yida girkanlar va ularning qo'shnisi darbiklar istiqomat qilganlar. Ulardan ham sharqda esa parfiyalik va barokaniyaliklar xoramney va karmoniylar istiqomat qilishgan. Baqtriya «tekisliklari» ga esa g'arbdan faqatgina kichik tog' yo'li orqali o'tish mumkin bo'lgan. Baqtriya yerlari Tanais daryosidan Hind daryosi bo'ylarigacha bo'lgan yerlarni egallagan. Tanais Baqtriya yerlarini Yevropadan Hind esa Hindistondan ajratib turgan. Ktesiy tasavvuriga ko'ra, Tanais Hind daryosiga qarma-qarshi bo'lib, Poit (Qora) dengizga qo'yilgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Ktesiyning Tanais deganda ikki daryo-Don va Sirdaryo haqidagi ma'lumotlar bir-biriga ziddir. Ktesiy yozganidek, Baqtriya yerlarini Tanais bo'ylarigacha

¹Geradot. Istoriya. str- 173

cho'zilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, u holda Tanais daryosi bu Sirdaryo bo'ladi va bu nisbatan to'g'ri tushuncha. Baqtriya satrapligi Ktesiy davrida ham, Aleksandr Makedonskiy zamonida ham Sirdaryogacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan edi.

O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar keyinroq Aleksandr Makedonskiy yurishlari (mil.avv. 329-327 yillar) davrida to'plandi. Jumladan, antik davrning yirik geograf olimi **Strabon** (miloddan avvagi 63-milodiy 28 yillar) 17 ta kitobdan iborat «Geografiya» nomli asarini yaratdi. U «Miloddan avvalgi V asrdan milodiy I asrgacha bo'lgan barcha geograf va tarixchilarning asarlaridan tanqidiy foydalandi»¹.

«Geografiya» ning XI kitobida O'rta Osiyoning Parfiya va Girkaniya kabi o'lkalari, Amudaryo, Sirdaryo haqida ma'lumotlar uchraydi. «Geografiya»ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i uning 24- bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag'ishlangan va katta ilmiy qiymatga ega. Shunisi muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga 27 ta xarita ilova qilingan.

Shuningdek, kitobda O'rta Osiyoda yashovchi sak, sug'd, skif, massaget qabilalari haqida ham ma'lumot bor². Yaksart (Sirdaryo), Politimet (Zarafshon), Epard (Murg'ob) daryolari haqida yozilgan; Amudaryo Araks va Oks deb atalgan. Uning suvlari esa botqoqliklarga emas «suvlar mamlakati» ga singadi. «Suvlar mamlakati» Shimoliy dengiz deganda, Strabon Orol dengizini tushungan, Amudaryoning bir o'zani Girkan qo'ltig'iga qo'yilgan, deb o'ylagan

Ptolomeyning (milodiy II asr) «Geografiya»sida Girkaniya, Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va Sug'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek o'sha mamlakatlar va ular bilan tutash o'lkalar va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan³.

Yunon va Rim olimlarining tarix va gografiyaga oid asarlari ma'lum darajada musulmon, shu jumladan yurtimiz olimlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodiga asos bo'lib xizmat qildi.

4-slayd. Ayni paytda **Ibn Xavkalning** X asrdagi Movaraunnahr kartasi hozirgacha ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Kartada:

1. Hisor. Turkiston va Zarafshon tog'lari

¹ Вязигин С. А. Материалы по исторической географии Теркманистане. Изв. Туркм. Филиала АН СССР. 1949. № 3-4. стр-35.

² Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri. T. «O'qituvchi. 1991. 148-bet

³ Shu asar. 34-41 betlar.

2. Iskandar ko'l.
3. Zarafshon daryosi
4. Qorako'l
5. Orol dengizi
6. Amudaryo
7. Sirdaryo

kiritilgan bo'lib dunyoning markazi sifatida bular Makkayu Madinaga qaratilgan edi.

5-slayd. Shuningdek, **Mahmud Qoshg'ariy (1029 yil)** ning «Devoni lug'ati turk» kitobida o'zi tuzgan dunyo xaritasini doira shaklidagi tasvirini ilova qiladi.

Mahmud Qoshg'ariy Qoraxoniylar davlatining rivoj topgan davrida yashadi. XI asrda toj-taxt uchun kurashlar davriga qaramay Mahmud Qoshg'ariy turkiy qabilalar orasida ko'p yurib o'zi tuzgan kartaga mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va hokazolarning nomlarini kiritadi. Karta asosan hozirgi sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Bu xaqida Mahmud Qoshg'ariyning o'zi shunday yozgan «Rumdan Mochingacha bo'lgan... shaharlar o'rnini aniqlash maqsadida ularning xammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim» deydi. Kartaning diametri o'zbekcha bosma nusxasida 18 sm.

Doira chizig'i to'q yashil bo'yoqda (o'zbekcha qora) ko'rsatilganligi Yer yuzini hamma tarafdin okeanlar o'rab olganligini bildiradi. Karta o'rta asr Sharq xaritalarga qisman o'xshasada, lekin ko'p elementlarning tasvirlarlanishi va mazmuni ulardan ancha farq qiladi:

A) Kartada doiraning, ya'ni yer yuzining markazi O'rta Osiyoga to'g'rilangan, aniqrog'i – Issikkul bilan Bolasog'un oralig'idir (o'rta asr arab kartalarida Yer yuzining markazi -Makka va Madina).

B) O'rta Osiyo va Qashqar xalqlarining dunyo to'g'risidagi qadimdan mavjud bo'lgan tarixiy va an'anaviy (kun chiqish-old tomon) tushunchalariga asoslanib, Mahmud Qoshg'ariy Sharq tomonni kartaning yuqori qismiga joylashtirilgan.

Karta o'sha davrdagi joy nomlarini qanday nomlaganligi haqida bizga ma'lumot beradi. Bu esa o'sha davr XI asr tarixini o'rganishda qimmatli manba xisoblanadi. Masalan: Shosh (Toshkent), Samarqand, Xo'jand, Marg'ilon, Kubo (Quva), Koson, Qashg'ar, Yorkent tarixiy viloyatlarning mavjudligini isbotlaydi va xokazo.

Shuningdek, daryolar Jayhun (Amudaryo), Xavorazm (Xorazm), Bahri Obiskun (Kasbiy dengizi), Rus, Sakoliba (Slavyanlar), Tarozi (Jambul), Mochin (Xitoy), Javarqo (Yaponiya) kabi qadimiy nomlari

haqida ham ma'lumot beradi. Lekin kartada kamchiliklar ham mavjud. Chunonchi, Amudaryo va Sirdaryoni yangilishib Kasbiy dengiziga quyiladi, deb ko'rsatilgan. Bu noto'g'ri. Umuman, M. Koshg'ariyning XI asrda tuzilgan bu kartasi tariximizni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XIII asrga kelib Yevropa kartografiyasida tub burilish davri bo'ldi. Matn ma'lumotlari-grafik tasvirlar kartalarga ko'chdi. Bu esa xo'jalik ishlarini tashkil etish va sayohatlar uchun qulaylik yaratdi. Quruqlikda, davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar, o'zaro kuchlar nisbati o'zga davlatlar ahvolidan ogoh bo'lishni talab qilar edi.

XIII asrda Osiyo qit'asida Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning kuchayishi va bu xavfning Yevropaga ham ta'siridan xavotirga tushish, ularning hurujlari haqida aniq, ma'lumotlarga ega bo'lish zaruriyatini tug'diradi. Yevropa davlatlarining maqsadi mo'g'ullar hujumini to'xtatish va mo'g'ullarni katolik diniga kiritishni bosh vazifa qilib olgan edilar.

1. XIII asrda Inakentiy IV ning Chingizxon huzuriga yuborgan elchisi fransiyexan monaxi Plano Karpini 1246 yilda Rossiyaning janubi, O'rta Osiyo hududlaridan o'tib Qoraqrumga boradi va borgan joyni kartaga kiritadi. Undagi ma'lumot:

Solanglik (Manjuriya)

Sarrasin (Afg'oniston, Eron)

Guirlar (mo'g'ullar)

Kaspiy dengizini okean deb ataydi. Tog'lari Iyerusalim va Balxiyaga tutashib ketgan deydi. Sayyohatnomasida karta ham bor.

2. Fransuz qiroli Lyudovig IX tomonidan Vilgelm de Rubrug 1252 – 1253 yil mo'g'ullar davlatiga yuboriladi. Kaspiyni okean bilan tutashgan emas deb yozadi. Uni dengizni 4 oyda aylanib chiqishi mumkin deydi.

3. 1271-1272 yili Venetsiyalik Marko Polo Qoraqurumga yo'l oladi. 1295 yili Kirmon – Tebriz - Tarabzun orqali o'z yurtiga qaytadi. Kitobning IV bo'limida Buxoro xonligi xududi haqida ma'lumotlar bor. Amudaryoni-Gejon, Jon nomi bilan tilga oladi. Samaraqand shahrini ta'riflaydi.

4. Venesiyalik Petr Viskonti 1320 yili O'rta Osiyo kartasini yaratadi. Unda Kaspiy dengizi Saroy deb berilgan. Orolni Kaspiy dengizi deb ko'rsatadi.

5. Keyinchalik Venesiyalik geograf Andrey Biankoning 1436 yilgi qo'lyozma atlasida, italyan kartografi Fra Mauro 1459

yilda karta tuzgan. Mazkur kartada hududlar bir muncha to'g'ri berilgan.

6-slayd.Umuman XVI – XVIII asrlarda G'arbiy Yevropada keng tarqalgan dunyoning siyosiy xaritalarida o'rta Osiyo hududlari O'zbek, O'zbekiya, Buxara, O'zbek Movaraunnahr, O'zbek Turkistan deb umumiy nom bilan atalgan. Shuni qayd qilish kerakki, bu nomlarning barchasi xalq nomi sifatida emas, balki joy nomi, yana mamlakat nomi sifatida qo'llanilgan. Shunday xaritalardan biri, «Kaspiy dengizi va o'zbek mamlakati xaritasi» deb nomlanadi. Bu karta 1735 yilda Yoxannes van Gelen tomonidan Nyurenberg shahrida nashr etilgan. Xarita Gollandiyalik xaritashunos Abraham Maasning qo'lyozma xaritasi asosida amalga oshirilgan. Abraham Maas esa uni o'z navbatida 1723 yilda Pyotr I tomonidan Eron va boshqa Sharq mamlakatlariga yuborilgan elchilari uchun maxsus tayyorlangan rus xaritasining asl nusxasidan ko'chirgan.

Karta Shimolda Rossiyaga qarashli Qalmuqiya (Kalmuchia) viloyati va Qozoqlar viloyati, Sharqda - Qoshg'ar viloyati, Janubda Hindistonga qarashli Qobul viloyati va Eronga qarashli Zabuliston, Xuroson hamda Astrabod bilan chegaradosh bo'lgan. Agar xaritaga diqqat bilan qaraydigan bo'lsak, Abraham Maas xaritasida XVI – XVII asrning birinchi yarmida o'zbeklar yashagan hududlar, ikkinchi tarafdin esa Shayboniylar (XVI asr) va Ashtarxoniylar (XVII-XVIII asrning birinchi yarmi) sulolariga tegishli o'zbek xonlarining siyosiy hokimiyatiga bo'ysungan hududlar aks ettirilgan. Shuningdek, kartada bu hududlar 11 ta o'lka va viloyatlarga bo'lingan. Bu ma'muriy birliklar xaritada uch qatorda joylashtirilgan. Yuqori qatorda 6 viloyat joylashgan. Turkiston, Farg'ona, Toshkent, Axsikent, Farob, Orol, Turkman cho'li; o'rta qatorda 3 ta viloyat Samarqand, Buxoro, Xiva, pastki qatorda ikkita qator joylashgan. Badaxshon va Balx. Shuningdek, 2 ta viloyat – Buxoro va Xivaga nisbatan *Propria* (mulk) so'zi ishlatilgan. Fikrimizcha, bu xonlik ma'nosini anglatgan bo'lsa kerak.

Xaritaning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, unda o'troq aholi yashaydigan joylar, (Bu joylar katta-kichikligiga qarab minorali masjid yoki 2 ta masjid shaklida maxsus belgilar bilan belgilangan) bilan bir qatorda ko'chmanchi chorvador aholi yashaydigan hududlar ham aks ettirgan bo'lib, ular qabilaning katta-kichikligiga qarab, bir necha o'tov shaklidagi belgilar bilan belgilangan.

Xaritada shahar va qishloqlar bir-biri bilan chiziqlar orqali birlashtirilgan bo'lib, bu chiziqlar karvon yo'llarini anglatgan. Xaritada qora rangli doiracha va uning ustidagi bayroq shaklidagi belgilari ham mavjud. Bu doirachalar karvon yo'llari ëqasida joylashgan kichik qishloqlarni, bayroqli doirachalar esa karvonsaroylarni anglatgan bo'lishi mumkin.

Xaritada ko'plab tog' tizmalari aks ettirilgan lekin ulardan faqat ikkitasining nomlari keltirilgan: karbadas montes (Samarqand viloyatida Keshdan sharqda va Termizdan shimolda) va Balchan montes (Xiva viloyatida Kaspiy dengizining Balxan qo'ltig'i qirg'oqlarida).

Xaritada ko'plab joy nomlari, shaharlar, aholi punkti nomlari ham qayd etilgan. Xaritadagi mazkur nomlarning ko'pchiligi o'rta asr yozma manbalarida ham qayd etilgan. Joy nomlarining yozilishi va ularni joylanishidagi ayrim noaniqliklarga qaramasdan bu xarita O'rta Osiyo tarixi va geografiyasi bo'yicha muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, kartorafiya o'tmishda yashagan xalqlarning davlatchilik tarixi va ularning joylashish o'rni, xalqlar etnografiyasi, shaharsozligi tarixini bugungi kun nuqtai nazarida gavdalantirishda muhim manba sanaladi. Shuning uchun bu fan haqli ravishda yordamchi tarix fanlari asoslari yo'nalishiga kiritilgan.